

Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI TADQIQ ETISHNING  
TARIXIY-FALSAFIY MOHIYATI, OLIMLAR ASARLARIDA ILMIY  
YORITILISHI

G.F.Ochilova

Navoiy davlat universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

M.Arziqulov

talaba

**Kalit so'zi:** kitobxonlik madaniyati, kitob, kutubxona, mutolaa madaniyati, Geytsen iborasi, kitobxonlikning tarixiy mohiyati, falsafiy mohiyati

**Annotatsiya:** Kitobning mohiyati haqida uning dastlabki kelib chiqishi tarixit-falsafiy etnologiyasi haqida yozilgan ushbu malola. Mutolaa madaniyati kishining manbaani to'laqonli tushunishi, undan zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglash hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kitob mutolaasi insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltirishi haqida ma'lumot beradi.

Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillardan biri bu kitob mutolaasidir. "Kitob", "kitobxonlik", "kutubxona" so'zlarining o'zagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga, ya'ni inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi.

Kitobning mohiyati mangudir. Bu mohiyat – tafakkurni abadiylashtiradi. Mutolaa madaniyati kishining manbaani to'laqonli tushunishi, undan zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglash hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kitob mutolaasi insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi. "Mutolaa" so'zi arabcha o'qish degan ma'noni anglatadi, bugungi kunda esa u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushuncha anglatadi.

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlarga etkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi. Har bir kitobxon o'z yosh toifasidan kelib chiqib badiiy asarlar yoki ilmiy asarlarni o'qishi, yoritilgan fikrlarni yanada teranroq anglab yetishiga imkon hosil bo'ladi. Buning uchun ota-ona, bog'cha, maktab hamkorligida bolaning qiziqishlari to'laqonli o'rganilishi kerak. Bir bolaga yeti mahalla ota-ona deganlaridek, farzand tarbiyasida, ularning ma'naviyatli madaniyatli bo'lib kamol topishida barcha birdek mas'ul hisoblanadi.

Kitob o'qishni odat qilmagan oila – ma'naviy qashshoq oiladir deb bejizga aytishmagan. Shunday ekan faqat ota-ona emas balki kutubxona hodimlari ham o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lishi, kitobxonlarga, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda kitob to'g'ri kitob tanlab berishi kerak bo'ladi. Bolalar o'qishi pedagogikasida yoshiga qarab o'qishning o'sishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi: bolalalik 6-9 yosh; bolalalikdan o'spirinlikka o'tish 10-11 yosh; o'spirinlik 12-13yosh; o'spirinlikdan o'smirlikka o'tish 14 yosh hisoblanadi. Bu toifadagilarning yosh chegarasi harakatchan bo'ladi, ya'ni kitobxonning ijtimoiy- psixologik sharoitining shakllanishiga ko'ra 10 yoshli



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

bolaning o`ziga xos tipologik xususiyatiga qarab o`spirin kitobxon toifasiga qo`shish, 14 yoshlilarni esa o`spirinlikka o`tayotgan kitobxon toifasi tabiatidagilar qatoriga qo`shish mumkin bo`ladi. O`qish –bolaning ma`naviy hayotiga mustaxkam kirib borishi uchun oldindan ta`sirchan-estetik tayyorgarlik ko`rish zarur. Kutubxonachining vazifasi kitobxon va kitobni yaxshi bilishdan iborat.

Bizning jonajon do`stimiz bo`lgan kitobning tarixiga nazar tashlasak, kitob hozirgi shaklga kelguncha uzoq yo`lni bosib o`tgan. Bundan bir necha ming yillar ilgari qadimgi bobilliklar, ossuriyaliklar va boshqa qadimgi dunyo xalqlari kitob sifatida sopollardan foydalanganlar. Xitoyda esa dastlabki kiroblar bambuk daraxtidan qilingan plastinkalarda yozilgan.

Keyinchalik Xitoyda shoyiga yozishni, eramizning I asrida esa, qog`ozga yozishni ixtiro qilishdi. Qadimgi madaniyat beshklaridan biri bo`lgan Misrda dastlabki kitob matnlari tosh bo`laklariga o`yib yozilgan. Sharq xalqlari yuksak madaniyatining namunalaridan biri “Avesto” kitobi ham, dastlab 12 ming qoramol terisidan ishlangan pergamentga yozilgan. O`rta asrlarda pergament yoki papirus varoqlarini to`rt buklab, daftar (tetrad, yunoncha “to`rtlik”) shkliga keltirilgan. Mana shunday daftarlarning bir nechtasini birlashtirib yaratilgan kitoblar “Kodeks” deb atalgan. Kitobning hozirgi shakliga kelishida kodekslar dastlabki qadam bo`lgan. Milodiy 1-asr oxirida. pergament kodlari haqida birinchi eslatmalar paydo bo`ladi - aslida sahifalardan iborat kitoblar. Yozuvlardan ustun ustunligiga qaramay, ular faqat milodiy 3-asrga kelib keng tarqaldi.

Har yili dunyoda 755,755 ta yangi kitoblar nashr etiladi. 2017-yilning o`rtalaridan boshlab hozirgacha dunyo bo`yicha 134,399,411 ta kitob nashr etilgan. Bu raqamlar shunchaki raqam emas, biz yoshlarni hartomonlama yetuk inson bo`lib yetishishimiz uchun qilinayotgan say harakatlar natijasidir. “Kitob seni hali sen ko`rmagan dunyoga olib boradi, sen eshitmagan so`zlarni aytadi” deydi Geytsen. Darhaqiqat, kitob juda ko`plab sir - sinoatlarga boydir. Uning boyliklari hech ado bo`lmaydi. Kitob insonga qanot bag`ishlaydi.

**Tarixiy mohiyati-**Kitobxonlik madaniyati insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`liq. Qadimgi davrlardan boshlab yozma manbalar bilimni avloddan-avlodga yetkazish vositasi bo`lib xizmat qilgan.

Qadimgi Sharqda (jumladan, Markaziy Osiyo hududida) kutubxonalar va madrasalar faoliyati kitob o`qishga katta e`tibor qaratilganini ko`rsatadi.

Islom uyg`onish davrida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalar ilm olishda kitobning o`rni beqiyos ekanini ta`kidlagan.

Yevropa ma`rifatparvarlik davrida kitobxonlik shaxs erkinligi va tafakkur rivojining asosi sifatida qaralgan.

Tarixiy jihatdan kitobxonlik madaniyati jamiyatning umumiy savodxonlik darajasi, ma`naviy qadriyatlari va ta`lim tizimi bilan chambarchas bog`liq bo`lgan.

**Falsafiy mohiyati shuni ko`rsatadiki,** kitobxonlik madaniyatining falsafiy asosida inson tafakkuri, ong va bilim o`rtasidagi munosabat yotadi.

Kitob o`qish — bu shunchaki axborot olish emas, balki **tafakkur qilish, tahlil etish va xulosa chiqarish jarayoni.**



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

Immanuel Kant bilimni inson ongining faoliyati bilan bog'lagan, ya'ni o'qish orqali inson dunyoni anglaydi.

Georg Wilhelm Friedrich Hegel esa bilimni tarixiy jarayon sifatida ko'rib, kitob orqali inson umumiy ruhiy taraqqiyotga qo'shilishini ta'kidlaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan kitobxonlik madaniyati:

- shaxsning **ma'naviy kamoloti**,
- **tanqidiy fikrlash**,
- **axloqiy qadriyatlarni shakllantirish** vositasidir.

**Pedagogik va ilmiy yondashuvlar** zamonaviy pedagogikada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishni ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida ko'radi.

- Lev Vygotsky o'qish jarayonini ijtimoiy va madaniy rivojlanish bilan bog'laydi.
- Jean Piaget esa o'quvchilarning yoshiga mos o'qish materiallari ularning tafakkur bosqichlariga mos bo'lishi kerakligini asoslagan.

O'zbek pedagog olimlari ham kitobxonlikni shakllantirishda oilaviy muhit, maktab va jamiyatning o'zaro hamkorligini alohida ta'kidlaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda quyidagi jihatlar o'rganiladi:

- o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi
- o'qish tezligi va tushunish darajasi
- kitob tanlash madaniyati
- raqamli va an'anaviy o'qish o'rtasidagi farqlar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kitob eng yaqin do'stlardan biridir. Biz savollarga kitoblar orqali javoblar topamiz, kitoblar fikrlash uchun eng muhim ozuqadir. Kitoblar eng yaxshi intellektual dam olishga va tasavvurlar parvozigga taklif qiladi. Ernest Xemingueyning ta'biri bilan aytganda: Yaxshi kitob ayzbergga o'xshaydi, yeti-sakkiztasi suv ostida yashaydi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T.2005.
1. 2. V.N.Gurov ijtimoiy pedagogik ishni tashkil qilish tajribasi // Pedagogika, 1993, № 3.
2. K.G.Selevko Bola qiziqishlari asosida o'quv jarayonining differentatsiyalashuvi.-M., 1996. 19. N.Maandi Mening orzuimdagi maktab // Xalq ta'lim, 1995,
3. Egamberdiyeva Nodira. Ijtimoiy Pedagogika. Toshkent 2002.
4. Berdiqulov.Q.G'. "Zamonaviy jamiyatda xizmatlar sohasining o'rni qanday?". Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining
5. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Toshkent milliy iqtisodiyot 2011 yil
6. Xarlamov I.F. Pedagogika. – M.: Gardariki, 1999. – 520 s
7. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonjova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S .Ilfizov."Umumiy pedagogika" 2018 yil
8. S.I.Mirhayitova "Pedagogik texnologiya" O'quv qo'llanma 2020yil Toshkent Iqtisodiyot.

